



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 811.512.1:37

IJTIMOYIY TARMOQLAR SHAROITIDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY IJTIMOYIY EHTIYOJ SIFATIDA

Raximova Zulfiyaxon Xashimjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada raqamli axborot makoni, xususan ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarining pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirish jarayonida ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning asosiy muloqot maydoniga aylanganligi bois, ushbu muhitda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish muhim ijtimoiy zarurat sifatida qaraladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy imkoniyatlari, ularning talabalarining kommunikativ madaniyati, kasbiy etikasi va pedagogik tafakkuriga ta'siri yoritiladi, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi ta'lim va tarbiya nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Zamonaviy kommunikativ makonda pedagog shaxsining nutq madaniyati, muloqot etikasi va mas'uliyatli kommunikativ xulqi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaraladi, pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda ona tili ta'limi jarayonida shakllantirish metodikasi yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ta'limiy vosita sifatida foydalanishning metodik imkoniyatlari asoslab beriladi, talabalarda mas'uliyatli, madaniyatli va samarali onlayn muloqotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar:

raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy zarurat, muloqot madaniyati, nutq madaniyati, ona tili ta'limi, ta'lim metodikasi.

Аннотация.

В статье анализируется проблема формирования педагогической коммуникативной компетентности студентов в условиях цифровой среды, в частности социальных сетей. В условиях глобализации и цифровизации социальные сети стали основной площадкой общения молодежи, что делает развитие культуры педагогического общения в данной среде важной социальной необходимостью. Рассматривается проблема развития культуры педагогического общения в условиях социальных сетей с точки зрения теории и методики обучения. Анализируются теоретические основы культуры педагогического общения, ее структурные компоненты и методические пути формирования в процессе обучения родному языку. Рассматриваются педагогические возможности социальных сетей и их влияние на коммуникативную культуру и профессиональную этику студентов.

Ключевые слова:

Социальные сети, педагогическое общение, культура общения, цифровая среда, коммуникативная компетентность, социальная необходимость, педагогическая деятельность.

Abstract.

This article discusses the issue of developing students' pedagogical communication competence in the digital environment, particularly through social networks. In the context of globalization and digitalization, social networks have become a primary communication platform for youth, making the development of pedagogical communication culture a significant social necessity. Examines the development of pedagogical communication culture in the context of social networks from the perspective of teaching theory and methodology. The theoretical foundations, structural components, and methodological approaches to forming communication culture in native language education are analyzed. The article highlights educational opportunities of social media and their impact on students' communicative culture and professional ethics.

Keywords:

Social networks, pedagogical communication, communication culture, digital environment, communicative competence, social necessity, pedagogical activity.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi talaba nafaqat auditoriyada, balki virtual makonda ham faol muloqot subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun ijtimoiy tarmoqlarda muloqot

qilish madaniyati, nutq etikasi va kasbiy mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar talabalarining fikr almashuvi, tajriba o'rganishi va o'z nuqtayi nazarini bildirishida qulay platforma bo'lsa-da, ushbu muhitda muloqot madaniyatiga rioya qilmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois talabalarining pedagogik muloqot kompetensiyasini ijtimoiy tarmoqlar orqali rivojlantirish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb ijtimoiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat shaxsiy muloqot vositasi, balki ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy faoliyatni amalga oshirish maydoniga ham aylanib bormoqda. Talabalar axborot almashish, ilmiy manbalarni muhokama qilish, o'qituvchilar bilan masofaviy aloqa o'rnatish hamda jamoaviy faoliyatni tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqdalar. Shu jihatdan, mazkur platformalarda olib borilayotgan muloqot mazmuni va shakli pedagogik nuqtayi nazardan alohida e'tiborni talab etadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagog kadrlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'layotgan nutqiy xatti-harakatlar, fikr bildirish uslubi, bahs-munozaralardagi pozitsiyasi va axloqiy me'yorlarga rioya qilishi ularning kasbiy madaniyati va pedagogik qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Chunki pedagog shaxsi jamiyatda nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ma'naviy-axloqiy namuna sifatida ham qabul qilinadi. Shu sababli, talabalarining onlayn muloqotdagi xulqi ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda talabalarining muloqoti har doim ham pedagogik madaniyat talablariga mos kelavermaydi. Ba'zi hollarda hissiyotga berilish, agressiv munosabat, etik me'yorlarga zid fikrlar bildirish yoki mas'uliyatsiz axborot tarqatish holatlari uchrab turadi. Bu esa pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli muhitda muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari — yozma nutq ustunligi, vizual belgilar (emodzi, stikerlar), qisqa va tezkor fikr almashuv — an'anaviy pedagogik muloqotdan farq qiladi. Ushbu farqlarni hisobga olmasdan turib, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, pedagogik ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarni alohida kommunikativ makon sifatida o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holatlar ijtimoiy tarmoqlarda talabalarining pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasini nafaqat ta'limiy vazifa, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy zarurat sifatida qarashni taqozo etadi. Chunki bugungi talaba — ertangi o'qituvchi bo'lib, uning raqamli muhitdagi muloqot madaniyati kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarining pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar axborot almashish, munozara yuritish va jamoaviy fikrlash uchun keng imkoniyat yaratadi. Talabalar ushbu platformalarda o'qituvchilar, tengdoshlar va keng auditoriya bilan muloqotga kirishadilar. Bu jarayonda pedagogik muloqot madaniyatiga rioya etish, fikrni aniq va etik normalarga mos tarzda ifodalash muhimdir.

Pedagogik muloqot madaniyati – bu nafaqat nutqning to'g'riligi, balki hurmat, bag'rikenglik, mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga asoslangan kommunikativ xulqdir. Ijtimoiy tarmoqlarda ushbu sifatlarning yetishmasligi kelajak pedagogining kasbiy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy ta'lim makoni tobora ko'proq raqamli platformalar bilan uyg'unlashib borar ekan, ijtimoiy tarmoqlar pedagogik muloqotning muhim kommunikativ resursiga aylanmoqda. Ushbu platformalar orqali talabalar va o'qituvchilar o'rtasida axborot

almashinuvi, fikrlar muhokamasi, maslahatlar berish va refleksiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Natijada, pedagogik muloqot an'anaviy auditoriya chegaralaridan chiqib, virtual makonda davom etuvchi uzluksiz jarayonga aylanyapti. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, ijtimoiy tarmoqlar muloqot subyektlari o'rtasida interfaollikni kuchaytiruvchi, ijtimoiy tajriba almashuvini jadallashtiruvchi va talabalarning kommunikativ faolligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tashkil etiladigan muhokamalar, onlayn guruhlar va ta'limiy hamjamiyatlar talabalarning fikrini erkin bayon etish, dalillash va o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon esa pedagogik muloqotning mazmuniy va funksional jihatdan boyishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar pedagogik muloqot uchun yangi mas'uliyat va talablarni ham yuzaga keltiradi. Virtual makonda muloqot qilish jarayonida shaxsning nutq madaniyati, axloqiy me'yorlarga rioya etishi, tanqidiy fikrlash va axborotga nisbatan selektiv munosabatda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun ijtimoiy tarmoqlardagi har bir fikr, munosabat va pozitsiya ularning kasbiy imiji va pedagogik etikasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, pedagogik muloqot samaradorligi nafaqat uzatilayotgan axborot hajmi, balki muloqotning madaniy, psixologik va axloqiy jihatlariga ham bevosita bog'liq. Ijtimoiy tarmoqlarda ushbu omillarni inobatga olmaslik pedagogik muloqotning yuzaki va formal tus olishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, mazkur muhitda pedagogik muloqotni tashkil etishda ongli yondashuv, kommunikativ mas'uliyat va kasbiy refleksiya muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar pedagogik muloqotning ko'p vektorli xarakterini namoyon etadi. Ya'ni, muloqot nafaqat "o'qituvchi-talaba" modelida, balki "talaba-talaba", "talaba-axborot manbai", "talaba-jamiyat" yo'nalishlarida ham amalga oshadi. Ushbu ko'p tomonlama muloqot shakllari talabalarda ijtimoiy faollik, mas'uliyat va kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali olib boriladigan pedagogik muloqot talabalarning reflektiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn muhokamalar, fikr-mulohazalar va bahslar jarayonida talabalar o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqish, boshqalar fikrini tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa pedagogik muloqotning faqat axborot uzatish emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy pedagogik muloqotning samarali va ta'sirchan maydoni bo'lib, u talabalarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish, kasbiy tafakkurini shakllantirish va pedagogik kompetensiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish pedagogik nazorat, metodik yondashuv va maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy strategiyalarni talab etadi.

Pedagogik yondashuvlar va tavsiyalar

Talabalarning ijtimoiy tarmoqlardagi pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Raqamli etika va nutq madaniyatini o'rgatish – talabalarga onlayn muhitda fikr bildirish me'yorlarini tushuntirish.
2. Interfaol onlayn mashg'ulotlar – forum, blog va ijtimoiy tarmoq guruhlarini orqali munozaralar tashkil etish.
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Shaxsiy namuna – o‘qituvchining o‘zi ijtimoiy tarmoqlarda pedagogik muloqot madaniyatiga amal qilishi [1].

Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarning pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Ushbu jarayon tasodifiy emas, balki pedagogik diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni baholash bosqichlarini o‘z ichiga olgan uzluksiz ta‘limiy jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur yondashuv doirasida talabalar muloqotni nazariy tushunish bilan cheklanib qolmay, balki real va virtual ta‘limiy vaziyatlarda uni amaliy faoliyat orqali egallaydilar. Ijtimoiy tarmoqlarda tashkil etiladigan pedagogik forumlar, onlayn muhokamalar va loyiha ishlari talabalarning kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalarini integratsiyalashgan holda shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv talabalarni muloqotning faol subyekti sifatida qarashni, ularning individual fikrlash uslubi, kommunikativ tajribasi va shaxsiy pozitsiyasini hisobga olishni taqozo etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda talabalarga o‘z fikrini erkin, ammo pedagogik etika doirasida ifodalash imkonini berish ularning kommunikativ ishonchini va mas‘uliyatini oshiradi. Pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda reflektiv yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Talabalarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot faoliyatini tahlil qilish, o‘z nutqiy xatti-harakatlarini baholash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish reflektiv kompetensiyani rivojlantiradi. Masalan, onlayn munozaralardan so‘ng o‘tkaziladigan reflektiv tahlillar talabalarni o‘z muloqot uslubini tanqidiy baholashga undaydi. Bundan tashqari, interfaol va hamkorlikka asoslangan yondashuvlar pedagogik muloqotni rivojlantirishning samarali vositalaridan hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda jamoaviy loyiha ishlari, kichik guruhlarda muhokamalar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish talabalarda muloqot jarayonida hamkorlik qilish, boshqalar fikrini tinglash va kelishuvga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu jarayonlar pedagogik muloqotning ijtimoiy xarakterini kuchaytiradi.

Tavsiyalar nuqtayi nazaridan, oliy ta‘lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha pedagogik-axloqiy reglamentlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday reglamentlar talabalarda raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish, mas‘uliyatli axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish va pedagogik etika me‘yorlariga rioya etishni ta‘minlaydi. Shuningdek, pedagoglar tomonidan ijtimoiy tarmoqlardan o‘quv-metodik vosita sifatida ongli foydalanish talabalarga ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Yana bir muhim tavsiya — raqamli pedagogika va kommunikativ madaniyatga oid maxsus mashg‘ulotlarni ta‘lim dasturlariga joriy etishdir. Ushbu mashg‘ulotlar orqali talabalar ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishning psixologik, axloqiy va pedagogik jihatlarini chuqur o‘zlashtiradilar. Bu esa pedagogik muloqot kompetensiyasining barqaror shakllanishiga zamin yaratadi. Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, pedagogik yondashuvlar va tavsiyalar tizimli ravishda qo‘llanilgandagina ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarning pedagogik muloqot kompetensiyasini samarali rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Mazkur yondashuvlar ta‘lim jarayonining sifatini oshirish bilan birga, jamiyat uchun mas‘uliyatli, madaniyatli va kommunikativ jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi [2].

Pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida empirik tadqiqot olib borildi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy

tarmoqlardan foydalanish sharoitida talabalarning pedagogik muloqot madaniyati, kommunikativ xulq-atvori va raqamli etikaga munosabati o'rganildi. Empirik ma'lumotlar pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining pedagogik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi. Ma'lumotlar anketa so'rovlari, onlayn muloqot jarayonlarini kuzatish hamda refleksiv tahlil metodlari orqali yig'ildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlardan ta'limiy va kommunikativ maqsadlarda foydalanishini bildirgan bo'lsa-da, pedagogik muloqot madaniyati va raqamli etika bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Xususan, empirik tahlil natijalari talabalarning bir qismida ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirish jarayonida hissiylik ustunligi, nutqiy aniqlikning yetishmasligi hamda bahs-munozaralarda pedagogik etika me'yorlariga to'liq amal qilinmasligi holatlarini ko'rsatdi. Bu esa pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda maxsus metodik yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi. Olingan empirik natijalarga tayangan holda, pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarning ijtimoiy tarmoqlardagi real muloqot tajribasini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliy muloqot vaziyatlariga asoslangan mashg'ulotlar talabalarning kommunikativ faolligini va pedagogik ongli munosabatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, empirik kuzatuvlar refleksiv yondashuvning muhimligini tasdiqladi. Onlayn muammolardan so'ng o'tkazilgan refleksiv tahlillar jarayonida talabalar o'z muloqot uslubidagi kamchiliklarni anglashga va ularni bartaraf etishga intilganliklari qayd etildi. Bu esa refleksiya pedagogik muloqot kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuningdek, interfaol va hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning yuqori samaradorligini aniqladi. Guruhli onlayn loyihalar va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'limiy munozaralarda ishtirok etgan talabalar orasida muloqot madaniyati, o'zaro hurmat va mas'uliyat hissining kuchaygani kuzatildi. Bu holat pedagogik muloqot kompetensiyasining ijtimoiy xarakterini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslari. Pedagogik muloqot madaniyati kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u til vositalaridan to'g'ri, o'rinli va ta'sirchan foydalanish, nutq etiketi me'yorlariga rioya qilish hamda muloqot jarayonida psixologik muvozanatni saqlashni o'z ichiga oladi. Ona tili metodikasi nuqtayi nazaridan pedagogik muloqot madaniyati quyidagi komponentlardan tarkib topadi:

1. Lingvistik komponent – adabiy til me'yorlariga rioya qilish.
2. Pragmatik komponent – nutqning vaziyatga mosligi.
3. Etik komponent – hurmat, bag'rikenglik va pedagogik odob.
4. Refleksiv komponent – o'z nutqini tahlil qila olish [3].

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish jarayonida aynan shu komponentlar pedagog shaxsining kasbiy qiyofasini belgilaydi. Ijtimoiy tarmoqlar muloqotni yozma shaklda amalga oshirishni talab etadi. Bu esa nutq madaniyati va imlo savodxonligiga yuqori talab qo'yadi. Ona tili o'qituvchisi uchun ijtimoiy tarmoqlardagi har bir yozma fikr kasbiy namuna hisoblanadi.

Virtual muloqot jarayonida: qisqa va aniq fikr bildirish, dalillangan munosabat, hissiy muvozanat, etik me'yorlarga rioya qilish pedagogik muloqot madaniyatining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ona tili ta'limi jarayonida

nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratish, talabalarni mas'uliyatli va etik muloqotga o'rgatish pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi [4].

Pedagogik muloqot madaniyati nafaqat til me'yorlariga rioya qilish, balki jamiyatda sog'lom kommunikativ muhitni shakllantirish omili sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur masala ta'lim nazariyasi va metodikasi doirasida chuqur o'rganilishi zarur. Empirik ma'lumotlarga tayangan holda, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga oid pedagogik-axloqiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish zarurligi ham asoslandi. Talabalar bilan o'tkazilgan so'rovlar natijasida ularning aksariyati raqamli muloqot bo'yicha aniq yo'riqnomalarga ehtiyoj sezayotganliklarini bildirgan. Mazkur holat pedagogik nazorat va metodik rahbarlikning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, empirik tadqiqot natijalari pedagogik yondashuvlar va tavsiyalarining nazariy asoslanganligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi kompetensiyaviy, refleksiv va interfaol yondashuvlarning integratsiyalashuvi orqali ta'minlanishi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar talabalarining nafaqat kommunikativ madaniyatini, balki ularning kasbiy va ijtimoiy mas'uliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarining pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy jamiyat uchun muhim ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Raqamli muhitda madaniyatli va mas'uliyatli muloqotga ega bo'lgan talaba kelajakda professional pedagog sifatida jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan pedagogik vosita sifatida oqilona foydalanish va talabalarda muloqot madaniyatini tizimli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib, pedagogik muloqotning yangi shakl va imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Ushbu muhitda talabalarining pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ta'lim sifati, kasbiy tayyorgarlik va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Pedagogik muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi esa ta'lim jarayonida kommunikativ qiyinchiliklar va kasbiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilindi [5].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot kompetensiyasi pedagog shaxsining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, u shaxsning nutq madaniyati, axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va kommunikativ xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda olib boriladigan muloqot pedagogning kasbiy imiji va pedagogik etikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar pedagogik muloqotning interfaol va ko'p tomonlama xarakterini kuchaytirib, talabalarda erkin fikrlash, o'z pozitsiyasini asoslash va muloqot jarayonida hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan yondashuvlar, metodik yo'riqnomalar va ongli nazoratni talab etadi. Aks holda, raqamli muloqot jarayoni pedagogik maqsaddan chetga chiqishi mumkin. Maqolada keltirilgan pedagogik yondashuvlar va tavsiyalar ijtimoiy tarmoqlar sharoitida talabalarining pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga tizimli va maqsadli yondashish zarurligini ko'rsatadi. Kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv hamda interfaol yondashuvlarning uyg'unligi talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik etika me'yorlariga rioya qilish va mas'uliyatli raqamli muloqotni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalarning nafaqat kommunikativ ko'nikmalari, balki ularning kasbiy tafakkuri va ijtimoiy mas'uliyati ham rivojlanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning o'z fikrlarini asosli, madaniyatli va pedagogik talablarga mos tarzda ifodalashiga imkon yaratadi. Bu holat pedagogik muloqotni faqat axborot almashish vositasi emas, balki shaxsni tarbiyalash va kasbiy jihatdan shakllantirishning muhim omili sifatida talqin etish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy pedagogik muloqotning samarali maydoni bo'lib, ushbu muhitda talabalarning pedagogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-uslubiy ishlar ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash hamda jamiyatda madaniyatli va mas'uliyatli muloqot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiq etilgan ilmiy-nazariy manbalar va pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim nazariy va metodik muammolaridan biridir. Pedagogik muloqot madaniyati pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi tarkibidagi integrativ sifat bo'lib, u lingvistik savodxonlik, nutq etikasi, ijtimoiy mas'uliyat hamda refleksiv fikrlashning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Nazariy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy tarmoqlar pedagogik muloqotning yangi kommunikativ makoni sifatida ta'lim jarayonining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muhit pedagog shaxsidan nafaqat til me'yorlariga rioya qilishni, balki kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholash, nutqning maqsadga muvofiqligini ta'minlash va pedagogik etika talablariga amal qilishni ham talab etadi. Demak, pedagogik muloqot madaniyati shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Nazariy jihatdan asoslash mumkinki, pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayoni kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ-faoliyatli yondashuvlarning integratsiyasi asosida samarali amalga oshadi. Ushbu yondashuvlar pedagogik muloqotni faqat axborot uzatish vositasi emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etish imkonini beradi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan asoslangan holda ta'lim nazariyasi va metodikasi fanining ustuvor ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S. Pedagogik mahorat va muloqot madaniyati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2016. 77-b.
2. Turg'unov R. Samarali ta'lim va pedagogik muloqot texnologiyalari. – Buxoro: Ilm-Ziyo, 2021. 91-b.
3. Ziyoyeva M. Pedagogik psixologiya va muloqot nazariyalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. 37-b.
4. Raxmonqulov A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar. – Samarqand: Zarafshon, 2019. 63-b.
5. Карасик В.И. Языковой круг личности. – Волгоград: Перемена, 2002. 44-с.

